



Shukur Xolmirzayev asarlarida qo'llanilgan dialektizmlar tahlili

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi Islomova E'zoza Yorqin qizi

Annotatsiya: O‘zbek shevalarining taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini izohlashda sheva, dialekt, lahja terminlari qo’llanildi. Sheva o‘ziga xos leksik, grammatik, fonetik xususiyatlari bilan farqlanadigan milliy xalqning kichik hududiy qismiga oid qismini ifodalasa, dialekt aksariyat til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan bir necha shevalarni birlashtiradi. Lahja esa tilimizning taraqqiyotiga asos bo‘lgan sheva va dialektlarning eng katta guruhini anglatadi. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev asarlarida qo’llangan dialektizmlar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Sheva, shevaga xos so‘zlar, dialekt, leksik dialektizmlar, fonetik dialektizmlar, morfologik dialektizmlar.

Аннотация: Термины «диалект», «диалект» и «диалект» использовались для объяснения истории и современного развития узбекских диалектов. Если диалект представляет собой небольшую территориальную часть национального народа, отличающуюся своими лексическими, грамматическими, фонетическими особенностями, то диалект объединяет несколько диалектов со сходными языковыми особенностями. Диалект относится к самой многочисленной группе диалектов и диалектов, являющихся основой развития нашего языка. В данной статье проанализирована диалектика, использованная в творчестве Шукура Холмирзаева.

Ключевые слова: диалект, диалектные слова, диалект, лексические диалектизмы, фонетические диалектизмы, морфологические диалектизмы.

Abstract: The terms "dialect", "dialect" and "dialect" were used to explain the history and current development of Uzbek dialects. If the dialect represents a small territorial part of the national people, distinguished by its own lexical, grammatical, phonetic features, the dialect unites several dialects with similar linguistic features. Dialect refers to the largest group of dialects and dialects that are the basis for the development of our language. This article analyzed the dialectics used in the works of Shukur Kholmirzayev.

Key words: Dialect, dialect-specific words, dialect, lexical dialectisms, phonetic dialectisms, morphological dialectisms.



Har bir xalq o‘z shevasi bilan barhayotdir. Shevaga xos so‘zlar xalqning milliy an’analari, udumlari, urf-odatlarini o‘zida jamlagan. Unda necha ming yillik xalqning tarixi, asriy orzulari mujassamdir. Shundan kelib chiqqan holda shevaga xos so‘zlar orqali nutq egasining qaysi millatga mansubligini, qaysi hududda istiqomat qilishini bilish mumkin.

O‘zbek adabiy tilining asosi, uning boyish manbalaridan biri shevadir. Sheva forscha so‘z bo‘lib, ovoz, til, so‘zlashish, odat, yo‘sinti, ravish kabi ma’nolarni bildiradi. Shevalar o‘zbek tilining o‘ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo‘lgan kichik bir qismi bo‘lib, o‘zlarining jug’rofiy o‘rinlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi¹. O‘zbek shevalari bir necha olimlar tomonidan turlicha tasnif qilindi. Bu sohada prof. I.I.Zarubin, prof. E.D.Polivanov, prof. K.K.Yudaxin, prof. G’ozi Olim, prof. A.K. Borovkov, prof. V.V. Reshetovlarning tasnifi diqqatga sazovordir.

O‘zbek shevalarining taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini izohlashda sheva, dialekt, lahja terminlari qo’llanildi. Sheva o‘ziga xos leksik, grammatik, fonetik xususiyatlari bilan farqlanadigan milliy xalqning kichik hududiy qismiga oid qismini ifodalasa, dialekt aksariyat til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan bir necha shevalarni birlashtiradi. Lahja esa tilimizning taraqqiyotiga asos bo‘lgan sheva va dialektlarning eng katta guruhini anglatadi.

Badiiy adabiyotda shevaga xos so‘zlarning qo‘llanilishi asar tilining ta’sirchanligini ta’minlaydi. Xalq shevalarini bilish, dialektal leksikadan boxabar bo‘lish yozuvchi va shoirlarimiz asarlari va satrlariga singdirilgan ma’noni chuqurroq anglash, asarda tasvirlanayotgan voqeа-hodisalar milliy koloritiga sho‘ng’ish imkonini beradi². Shoir va youvchilar qaysi yurt farzandi bo‘lishmasin, ular o‘z ijodida xalqning ma’naviy mulkidan foydalanadi va asarlarida sheva unsurlari aks etadi.

Surxon yurtining iste’dodli farzandi, serqirra ijod sohibi Shukur Xolmirzayev o‘z asarlarida shevaga xos so‘zlardan unumli foydalangan. Yozuvchi ijodidagi shevaga xos so‘zlar mahalliy koloritni boyitish hamda asar xalqchilligini ta’minalash maqsadida qo‘llanilgan. Shukur Xolmirzayev ijodida, asosan, Surxondaryo shevalariga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlar asar ta’sirchanligini ta’minlab, badiiy asar obrazliligini va jozibadorligini oshirishga xizmat qilgan.

¹ N. Rajabov. O‘zbek shevashunosligi. –Toshkent , 1996. 30-bet

² F.Musayeva. O‘zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi. –Toshkent, 2009. 3-bet.



Ijodkor qo‘llagan shevaga xos so‘zlar orasida fonetik, leksik, morfologik dialektizmlarning har biri alohida ustunlikka egadir.

“Uning otasi Rahmon polvon qirq yoshida ham kurashda yiqilmagan, keyin bir o‘rtalashuvchilar yashar o‘rtacha polvon bir *qoqmada* yiqitib qo‘yanida – dardi shunchalikki, omborga bo‘yra to‘shab, ustidan suv sepib, unga bag’rini berib yotayota oldin yo‘talni orttirib, keyin qon qusa-qusa o‘lib ketgandi” (Omon ovchining o‘limi).

Ushbu gapdagi *qoqma* so‘zi *kurashda chalib yiqitish* ma’nosiga ega. Bu so‘z boshqa hududda yashovchilar uchun tushunarsiz bo‘lishi tabiiy. Biroq Shukur Xolmirzayev leksik dialektizm orqali o‘sha hududga xos bo‘lgan milliy an’ana va odatlarni ifodalagan. Yozuvchi o‘z yurtiga bo‘lgan cheksiz muhabbatini xalqning asosiy boyligi bo‘lgan sheva so‘zlardan foydalanganida deb bilish mumkin.

“Omon bir kuni ovdan quruq qaytdi: *zovboshida* bir *qobon*, bir megajin va o‘ntacha *churpani kamarga* qamab chiqishini kutib yotgan edi, tepada geoglarning vertolyoti paydo bo‘ldi-da, naq kamar ustiga pasayib shunday shovqin ko‘tardi, shamoli joni qattiq archalarni ham titratdiki, qamaldagi cho‘chqalar sel bosganday vahimada chiqib, xuddi Omon pisib turgan archa tagiga o‘zlarini urdi. Omon kalovlanib, archa orqasiga o‘ta oldi, xolos. Cho‘chqalar odamning beliga uradigan *miyazorga* oralab, ilonizi yo‘l qoldirib ketibdi” (Omon ovchining o‘limi). *Zovboshi deb kichik jarlikning boshiga* aytildi. Yozuvchi ushbu leksik dialektizm orqali asar qahramonining tog’li joylardagi hayotini aniq va obrazli tarzda ifodalashni ko‘zlagan. *Yovvoyi cho‘chqa esa Surxon xalqi shevasida qobon* deb nomlanishi hikoyani mutolaa qilish jarayonida anglashiladi. Qobon bolasi o‘sha hududdagi xalq uchun *churpa* deb ataladi. Parchada qo‘llangan kamar shevaga xos so‘zi berk joyni ifodalaydi. Bundan anglashiladiki, tog’li hududda istiqomat qiluvchilar kamardan yovvoyi cho‘chqalar uchun boshpana sifatida foydalanishadi. Ijodkorning o‘z hududi shevasiga xos bo‘lgan miyazor so‘zi urug’i zaharli bo‘lgan yovvoyi o‘tning nomidir. Shukur Xolmirzayev ushbu parchadagi shevaga xos so‘zlar vositasida qahramonlari, ular harakatlanayotgan hudud, yuz berayotgan voqeа-hodisaning jonli tasviriga erishgan.

“*Tog’dagi juvanalaringiz inak bo‘lguncha kosamiz oqarmas ekan*”(Omon ovchining o‘limi). Inak adabiy tilda sigirni ifodalaydi, juvana esa sigirning bolasi, ya’ni buzoqchadir. Asarda qo‘llangan bu kabi sheva so‘zlar bir qarashda qahramonlarning dashtga mansub aholi ekani va ularning mahalliy tili haqida aniq tushunchalarga ega bo‘lish mumkin.



“Nihoyat, u izi tushmagan so‘qmoqdan qoplondek yengil yurib borarkan, ular yiqilgan joy suv urib ketgan *arna* ekani, kiyiklar u yerda bo‘lmasa, etakka uchib ketganlarini tusmolladi”(Omon ovchining o‘limi). Arna bu selda hosil bo‘lgan chuqur ariq bo‘lib, yog’ingarchilikdan so‘ng yuzaga kelgan yemirilish hisoblanadi. “Xotini sigir sog’dirmayotganidan koyinib edi, Omon o‘zi *xurmani* olib, sigir tagida cho‘nqaydi”(Omon ovchining o‘limi). *Xurma* sopoldan yasaladigan ko‘za bo‘lib, sut solib qo‘yish, qatiq ivitish uchun ishlataladi. O‘zbek xalqining sevimli ertaklaridan biri bo‘lgan “Xurmacha polvon” nomi ham ayni shundan kelib chiqqan.

“Ertasiga Ulton piyonning vahimasiga “ergashib” rayondan chiqib kelgan bir to‘da odam Quriqsoy yoqasiga enaverib, ko‘ngil aynituvchi manzarani ko‘rdi. Bir gala *masliqxo‘r g’ajirlar yulg’unzor* ichida, go‘yo qor supasida yotgan bir kimsani cho‘qib-cho‘qib yer edi”(Omon ovchining o‘limi). Gapda qo‘llangan masliqxo‘r so‘zi o‘laksaxo‘r qushni, g’ajir yirik yirtqich qush –tasqarani ifodalandi. Bularning ikkalasi ham yirtqich qushlarni nomlovchi sheva so‘zlardir. *Yulg’unzor* esa mayday gulli, oqish, barglari kichik buta o‘sadigan maydon, joy hisoblanadi.

“ Keyin kulib hamda g’ijinib davom etdi: - Shundoq *ketivossam* (*ketayotsam*- morfologik dialektizm), ro‘paramdan ikkita davangi *kevotti* (*kelyapti*- morfologik dialektizm). Trotuarda edim. To‘g’ri *kelishaverdi* (*kelaverishdi*). Man (men) chetlanib, yo‘l berdim. O‘tishdi-yu, vay, *sezmiy* (*sezmay*- morfologik dialektizm) qoldim, qo‘lim bir silkindi. Qarasam, sumkam yo‘q. Bittasining qo‘lida, hech narsa ko‘rmaganday *ketishvotti* (*ketishyapti*- morfologik dialektizm). “Hoy, shu kuningdan o‘lganining yaxshimasmi?” deb baqirdim. Chopib borishga qo‘rqaman. – U yana boshini egib kului. – *Vaysovurdim* (*vaysayverdim*- morfologik dialektizm). “Bo‘yingga qara, *iplos* (*iflos*- fonetik dialektizm)! Kelib-kelib xotin kishini tunaysanmi?” “ Yotishga qo‘ymadilar... Men bechora *musopirdi* (*musofirni*- morfologik va fonetik dialektizm) . Gastinsaga haydadilar”. “*Jichcha* (*jichcha* – leksik dialektizm) quying, azizim...kelgan, ketgan bo‘lsa, yaxshi *bo‘pti* (*bo‘libdi*- morfologik dialektizm)” (Bulut to‘sgan oy). Parchada qo‘llangan fonetik, leksik va morfologik dialektizmlar asarda mahalliy koloritni yanada boyitishga, obrzalilikni ta’minalashga xizmat qilgan. Yozuvchining yana bir mahorati shundaki, qaysidir asar qahramoni nutqida shevaga xos so‘zlar ifodasiga hamda ishlatalishiga keng ahamiyat bersa, qaysidir qahramonini faqat badiiy tilda so‘zlatadi. Bu bir tomondan, ijodkorning bir xillikdan yoki qolipga tushib qolishdan qochishi deb qaralsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi personaj nutqini individuallashtirish, mahalliy



mentalitet, hududiy sharoit, xalqona ruh hamda kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan unumli foydalangan.

Milliy tilning turli dialekt va shevalariga tegishli bo‘lgan original so‘zlar faqat dialektolog va tilshunos olimlar ilmiy tadqiqot ishlarining mavzusi bo‘lib qolmay, balki muhim badiiy-tasviri vosita sifatida so‘z san’atkorlari –yozuvchilar, shoirlar va boshqalarning ham diqqatini o‘ziga jalb etadi. Dialektal so‘zlarning o‘ziga xos emotsional-ekspressiv va estetik vosita sifatida badiiy tekstda ma’lum darajada qo‘llanilishi qonuniy hodisadir. Shunga ko‘ra, bunday dialektal so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlarini badiiy asarlar tili materiali asosida o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi³.

Shukur Xolmirzayev Surxon vohasining Boysun tumanida voyaga yetgan. Tug’ma iste’dodi bilan birga shu yurtning go‘zalliklari ham uning mahoratlari yozuvchi bo‘lib kamol topishiga zamin yaratgan. Bu ijodkor asarlarida tabiat manzalariga keng o‘rin berilgani, hayvonot va o‘simlik dunyosi tiniq , ichdan his etib tasvirlanganida bilinadi. Iste’dodli yozuvchi asarlari tilida o‘zi tug’ilib voyaga yetgan yurtda qo‘llaniladigan so‘zlar, iboralar, atamalarni ham o‘rni bilan ishlatadi. Bu, avvalo, asarning xalqchilligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, adabiy tilimiz leksik qatlaming boyishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Shukur Xolmirzayev Surxon shevalarining ma’no-mohiyatini o‘z asarlarida mukkamal darajada ochib bergen. Shevaga xos so‘zlarda o‘z xalqimizning o‘tmishi, milliy urf-odatlari, madaniyati va turmush sharoiti yaqqol namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, 2016.
2. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, 1978.
3. N. Rajabov. O‘zbek shevashunosligi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
4. A. Doniyorov. Sheva unsurlarining badiiy asarlarda qo‘llanilishi. O‘zbek tili va adabiyoti. -1990, №6.
5. F.Musayeva. O‘zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi. –Toshkent, 2009.
6. Sh. Xolmirzayev. Saylanma, 1-jild. –Toshkent, 2003.
7. Sh. Xolmirzayev. Saylanma, 3-jild. –Toshkent, 2006.

³ A. Doniyorov. Sheva unsurlarining badiiy asarlarda qo‘llanilishi. O‘zbek tili va adabiyoti. -1990. №6.